

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

E.R.Yuzlikayeva

«_____» _____ 2014 yil

**5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi kunduzgi
bo'lim 402-guruh talabasi**

Karimova Shaxnoza Shuxratullaevnaning

**“G'arbiy Evropa davlatlari xo'jaligining iqtisodiy taxlili”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası katta o'qituvchisi

_____ I.N.Islomov

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası dots., g.f.n

_____ N.Safarova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

**«Geografiya va uni o'qitish
metodikasi» kafedrası mudiri**

_____ g.f.n. dots. N.R.Alimqulov

«_____» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. G‘ARBIY YEVIROPA DAVLATLARINING GEOGRAFIK O‘RNI, TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI.....	5
1.1. G‘arbiy Yevropa davlatlari geografik o‘rnining xususiyatlari.....	5
1.2. G‘arbiy Yevropa davlatlarining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta‘minlanish xususiyatlari.....	9
II.BOB. G‘ARBIY YEVIROPA DAVLATLARI XO‘JALIK TARMOQLARINING HUDUDIIY JOYLASHISHI.....	12
2.1. G‘arbiy Yevropa davlatlar sanoat tarmoqlari.....	12
2.2. G‘arbiy Yevropa davlatlar qishloq xo‘jaligi.....	15
2.3. G‘arbiy Yevropa davlatlar transporti.....	18
III.BOB. G‘ARBIY YEVIROPA DAVLATLARI XO‘JALIGINING JAHON XO‘JALIGIDAGI O‘RNI, UMUMIIY TAHLILI VA MAVZUNI O‘QITISH METODIKASI.....	24
3.1. G‘arbiy Yevropa davlatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni.....	24
3.2. G‘arbiy Yevropa davlatlari xo‘jaligining umumiiy tahlili.....	31
3.3. G‘arbiy Yevropa davlatlari mavzularini o‘qitish metodikasi.....	47
Xulosa.....	52
Adabiyotlar.....	54
Ilovalar.....	55

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr, shubhasiz, xalqaro munasabatlarda butun dunyoni qamrab oladigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini xalqaro institutlar va tas' hkilotlarda suveren davlatlar davrasini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozasi deb emas, balki ayrim mintaqalarda ham, shuningdek, umuman, butun sayyoramiz ko'lamida sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili, deb hisoblamoq zarur.

Hozirgi davrda jahon va uning turli mintaqalarida davlatlararo o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarining kuchayib borishi kuzatilmoqda. XXI asr jahon iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan bunday jarayonlar ob'ektiv hodisa bo'lgan globallashuvni keltirib chiqardi va u o'z ta'sir doirasiga har bir mintaq, har bir davlat iqtisodiyotini qamrab ola boshladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatlararo hamkorlik ular oldidagi qator muammolarni birgalikda hal etishni taqozo etadi. Shu o'rinda "Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz",¹ deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

O'zbekiston Respublikasi Yevropa davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida hukumat rahbarlarining sammit-yig'ilish'hi bo'lib o'tdi (1996 yil). Ushbu yig'ilishda «O'zbekiston – Yevropa davlatlari o'rtasida hamkorlik munosabatlarini o'rnatish» to'g'risida shartnoma imzolandi. Respublikani SPSga a'zo bo'lishi mamlakat uchun Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni o'rnatish imkoniyatini berdi.

2000 yilda O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarining geografiyasi yanada kengayib, tashqi savdo aylanmasining 63,1 %i Yevropa mamlakatlariga to'g'ri kelgan edi. Shu yili respublikaning Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan bo'ladigan savdo iqtisodiy aloqalari 7,2 %ga, OPEK mamlakatlari bilan 1,4 barobarga, EKO mamlakatlari (Eron, Turkiya, Afg'oniston, Turkmaniston va

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 114 b.

bos'hqalar) bilan esa 1,2 marta o'sib, 2000 yilda O'zbekistonning umumiy savdo aylanmasining 31-32 %i Osiyo va Yaqin – O'rta Sharq mamlakatlariga to'g'ri kelgan edi.

O'tgan asrning 90-yillari boshiga kelib, sobiq Ittifoq hududida kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, eng avvalo, ular oldiga mamlakatning ichki, va ayniqsa, tashqi siyosatini ishlab chiqishni, har bir davlatning jahon hamjamiyatiga uyg'unlashuvini zarur qilib qo'ydi. Shulardan kelib chiqib, mustaqil rivojlanish sharoitida O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimini shakllanishi, rivojlanishi va uni takomillashtirish hamda shu orqali jahon hamjamiyatiga uyg'unlashuvining hududiy muammolarini tadqiq qilish zamonaviy geografik tadqiqotlarning dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biridir. Bunda respublikaning Yevropa davlatlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligi, uning transport kommunikatsiyalari jihatlariga e'tibor berish muhim masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. G'arbiy Yevropa davlatlari xo'jaligining iqtisodiy taxlilini tadqiq qilish va shu asosda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishning istiqbol yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

- davlatlararo hamkorlik va integratsiya jarayonlariga doir jahon tajribasini tahlil qilish;
- mintaqa davlatlari o'zaro iqtisodiy hamkorligining huquqiy asoslarini o'rganish va uning davlatlararo aloqalarni rivojlantirishdagi rolini ochib berish;
- mintaqaviy integratsiya sharoitida transport tizimlaridan oqilona foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash;

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. MBI ishining **ob'ekti** sifatida G'arbiy Yevropa davlatlari xo'jaligining iqtisodiy taxlili olingan. Jahon iqtisodiyotining hozirgi globallashtirish sharoitida O'zbekiston va G'arbiy Yevropa davlatlari savdo-iqtisodiy hamkorligi va o'zaro integratsiyalashuvini takomillashtirishning geografik jihatlarida esa tadqiqotning **predmeti**ni tashkil qiladi.

I.BOB. G‘ARBIY YEVIROPA DAVLATLARINING GEOGRAFIK O‘RNI, TABIY SHAROITI VA RESURSLARI

1.1. G‘arbiy Yevropa davlatlarining geografik o‘rnining xususiyatlari

Yevropa Osiyo bilan birga Yevroosiyo qit‘asini tashkil etuvchi dunyoning olti materigidan biri. Maydoni qariyb 10 mln kv kmni tashkil etib, aholisi 733 mln kishidan iborat. Qadimgi greklar dastlab Yevropani Osiyodan Egey va Qora dengiz orqali, Afrikadan O‘rta er dengizi orqali ajralib turuvchi alohida materik deb hisoblashgan. Keyinchalik Yevropa Yevroosiyo deb atalgan materikning faqat kichik qismini tashkil etishini aniqlashgan. Antik mualliflar Yevropaning sharqiy chegarasini Don daryosi bilan belgilashgan (Polibiy va Strabon esdaliklarida bu haqida yozib qoldirilgan). Mazkur an‘ana deyarli ikki ming yil davom etgan. Jumladan, Merkator bo‘yicha Yevropaning chegarasi Don bo‘ylab cho‘zilgan va shimolda Oq dengizga borib tutashgan.

Evropa asosan o‘rtacha kengliklarda joylashgan bo‘lib, uning faqat shimoliy chekkasi subarktika va Arktika mitaqalariga, janubiy qismi esa subtropik mintaqaga kiradi.

Yevropani shimol, g‘arb va janubda Atlantika va Shimoliy Muz okeanlarining dengizlari o‘rab turadi. Sharqda Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi chegara shartlidir: bu chegara odatda, Ularning sharqiy tog‘ etaklari, Emba daryosi, Kaspiy dengizi, Kuma-Manich botig‘i orqali o‘tkaziladi. Yevropa maydoni 10,5 mln km,kv. ga teng. Bu esa Yer sharidagi quruqlikning taxminan 1/13 qismi demakdir.

Yevropaning shimoldan janubga 35° cho‘zilganligi tufayli (materikning eng shimoldagi nuqtasi- Nordkin burni 71°,08 shimoliy kenglikda) eng janubiy nuqtasi Marroki burni 36° shimoliy kenglikda) geografik kenglik buylab joylashgan zonal landshaft farqlari juda aniq. Kenglik buylab 76° dan ko‘prok cho‘zilganligi natijasida landshaftlar g‘arbdan sharqqa qarab ham anchagina o‘zgarib boradi. Atlantika okeanidan sharqqa qarab ham anchagina o‘zgarib boradi. Atlantika okeanidan sharqqa tomon uzoqlashgan sari iqlimning kontinentalligi sezilib boradi.

Yevropaning qirg'oq chizig'i juda egri-bugri bo'lib, ichki dengizlar, qo'ltiqlar, yarim orollar ko'p. Qirg'oq chizig'ining umumiy uzunligi taxminan 38000 km. G'arbiy Yevropaning eng ichki rayonlari dengizdan bori yo'g'i 600 km uzoqdadir.

XV asrda, musulmonlar deyarli butun Ispaniyadan, vizantiyaliklar–Osiyodan siqib chiqarilgan paytda, Yevropa qisqa vaqtga deyarli xristianlik dunyosini takroriga aylanib ulgurgan, biroq hozirgi vaqtda xristianlarning aksariyati Yevropada yashashadi. XIX asrda jahon sanoatining katta qismi Yevropada joylashgan edi, bugungi kunda esa, mahsulotlarning katta qismi Yevropaga chetdan keltiriladi.

1720-yilda V.N.Tatishchev Yevropaning sharqiy chegarasini Ural daryosi bo'ylab o'tkazishni taklif etgan. Bosqichma-bosqich yangi chegara dastlab Rossiyada, keyin undan tashqarida umum tomonidan qabul qilingan. Hozirgi vaqtda Yevropaning chegaralari quyidagicha: shimolda–Shimoliy Muz okeani; g'arbda–Atlantika okeani; janubda–O'rta Yer dengizi, Egey, Marmar., Qora, Azov dengizlari; sharqda–Ural daryosi Emba daryosidan Kasbiy dengizigacha, Kuma va Manich daryolaridan Donning quyilishiga bo'lgan hududni o'z ichiga oladi[13].

Geografiyasi. Yevropa Atlantika va Shimoliy Muz okeani va ularning dengizlari bilan yuvilib turadi.

Orollarning maydoni 730 ming kv. kmdan iborat. Yevropaning qariyb $\frac{1}{4}$ qismini yarim orollar (Skandinaviya, Pireney, Apennin, Bolqon) tashkil etadi.

Elbrus tog'ining o'rtacha balandligi 300 metrni, maksimali esa, 5642 metrni, eng pasti - 28 metrni (Kaspiy dengizi). Yevropa hududining 17%ini quruqlik (yiriklari–Sharqiy Yevropa, O'rta Yevropa, O'rta va Quyi Dunay, Parij basseyni) va tog'lar (asosiylari–Alp, Kavkaz, Karpat, Pireneya, Apennin, Ural, Skandinaviya, tog'lari, Bolqon yarim oroli tog'lari). Harakatdagi vulqonlar Islandiya va O'rta Yer dengizida mavjud.

Hududining katta qismida iqlim mo'tadil (g'arbda–okeanga xos, sharqda–kontinental, qishi qorli va sovuq), shimoliy orollarida–subarktik va arktik, Janubiy Yevropada O'rta Yer dengizi havzasiga xos iqlim mavjud. Arktika orollari

muzliklar mavjud, Islandiya, Skandinaviya tog'larida, Alpda (maydoni 116 ming kv km dan ortiq).

Asosiy daryolari: Volga (Yevropaning eng uzun daryosi, maydoni bo'yicha bir mamlakat hududiga to'g'ri keladi), Dunay, Ural, Emba, Dnepr, Don, Pechora, Kama, Oka, Oq, Dnestr, Reyn, Elba, Visla, Taxo, Luara, Oder.

Katta ko'llari: Ladoga, Onega, Chud, Venern, Balaton, Jeneva.

Arktikaning orollarida va Shimoliy muz okeani qirg'oqlari bo'ylab—arktik adirlar va tundralar, janubda—tundra o'rmonlari, taygalar, aralash va keng bargli o'rmonlar, o'rmon-dashtlar, dashtlar, subtropiklar o'rta er o'rmonlari va butalar; janubiy-sharqda—yarimcho'llar yastanib yotadi.

So'nggi vaqtlargacha Yevropa dunyoning qumli cho'l mavjud bo'lmagan (tashqi belgilariga ko'ra yarim cho'lga qiyoslanadigan Ispaniyadagi Tabernas cho'lini hisobga olmaganda) yagona qismi hisoblanardi. Tabiiy manbalardan sanoat uchun foydalanishga inson faoliyati va erdan noratsional foydalanish natijasida Rossiyadagi Kalmikiya hududining katta qismining cho'llashuvi natijasida Yevropa mazkur unvondan mahrum bo'ldi. Shuningdek, Ukraina hududida ham Aleshkov qumlari deb ataluvchi kichik sahrolar mavjud.

Tarixi. Yevropa uzoq vaqtlargacha odamlar tomonidan o'zlashtirilmagan hudud sifatida qoldi. Gruziyaning janubiy-sharqiy hududlarida bundan 1,8 million yil ilgari keyinchalik butun Janubiy Osiyoda tarqalgan Homo habilis dan homo erectus gacha o'tish bosqichidagi odam qoldiqlari topilgan. Mazkur odam suyaklariga alohida Homo georgicus deb nom berilgan.

Inson Yevropaga qayerdan kelgani haligacha munozarali. Biroq Yevropa insoniyat paydo bo'lgan joy emasligi ma'lum. Dastlabki gominidlar Yevropaga Hindistondan kelganligi haqidagi faraz mavjud. Yevropaga gominidlarning Old Osiyo orqali Afrikadan Yevropaga kelganligi haqidagi faraz ko'proq haqiqatga yaqin. Bu voqea villafranklar davrining o'rtalarida yuz berganligi haqidagi taxmin mavjud.

Haqiqatan ham, Yevropani Geydelberg odami va uning to'g'ridan-to'g'ri avlodi neandertal odami tashkil etadi. Yevropa iqlimiga moslashgan, o'zida maxsus shaklni aks ettiruvchi neandertal odamdan tarqalgandir.

Hozirgi ko‘rinishdagi zamonaviy odamlar Yevropaga eng birinchi bundan 35 ming yil avval paydo bo‘lgan, 28 ming yil muqaddam esa, neandertallar bilan to‘liq o‘rin almashishgan[16].

Yevropa mamlakatlari. Yevropada joylashgan davlatlarni aniq hisob-kitob qilish Yevropa chegaralarini aniqlash va tan olinmagan yoki qisman tan olingan davlatlarning hududlarini qo‘shish mezonlari bilan bog‘liq. Tan olingan davlatlar soni 44 ta.

1-jadval

Yevropa mamlakatlari.

№	Mamlakatlar	№	Mamlakatlar	№	Mamlakatlar
1	Avstriya	16	Ispaniya	31	Ruminiya
2	Albaniya	17	Italiya	32	San-Marino
3	Andorra	18	Latviya	33	Serbiya
4	Belorus	19	Litva	34	Slovakiya
5	Belgiya	20	Lixtenshteyn	35	Sloveniya
6	Bolgariya	21	Lyuksemburg	36	Ukraina
7	Bosniya va Gersegovina	22	Malta	37	Finlyandiya
8	Vatikan	23	Makedoniya	38	Fransiya
9	Buyuk Britaniya	24	Moldova	39	Xorvatiya
10	Vengriya	25	Monako	40	Chernogoriya
11	Germaniya	26	Niderlandiya	41	Chexiya
12	Gresiya	27	Norvegiya	42	Shveysariya
13	Daniya	28	Polsha	43	Shvesiya
14	Irlandiya	29	Portugaliya	44	Estoniya
15	Islandiya	30	Rossiya		

Shuni qayd etib o‘tish zarurki, Yevropa va Osiyoning an‘anaviy chegaralari Yevropa davlatlari ro‘yxatidan joy olgan Ozarbayjon, Armaniya, Gruziya, Kipr va Turkiyani o‘z ichiga qamrab oluvchi Kavkaz tizmasi va Qora dengiz qirg‘oqlari hisoblanadi[16].

Yevropa hududida dunyoning eng katta va eng kichik davlatlari – Rossiya va Vatikan joylashgan.

Hududiy bo‘linishi. Yevropa odatda Shimoliy va Janubiyga, G‘arbiy va Sharqiyqa Yevropaga bo‘linadi. Bunday bo‘linish shartli ko‘rinishga ega, chunki

bu erda nafaqat geografik, balki siyosiy omillarning ham o‘rni bor. Mazkur nuqtai nazarga ko‘ra, ko‘p mamlakatlari turli guruhdagi davlatlarga ajratish mumkin.

Sobiq Ittifoq davrida Yevropa siyosiy tus berilgan Sharqiy va G‘arbiy qismlarga bo‘lingan. Sharqiy Yevropaga GDR, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Albaniya, Yugoslaviya va Sobiq Ittifoq kiritilgan bo‘lib, ularni sotsialistik yoki yana «xalq demokratik davlatlari» deb atashgan. G‘arbiy Yevropaga qit‘adagi qolgan barcha davlatlar kiritilgan: Ispaniya, Portugaliya, Fransiyaning janubi, Italiya, Malta, Kipr, Gresiya va Turkiya Janubiy Yevropa deb nomlangan bo‘lsa, Islandiya, Norvegiya, Shvesiya, Daniya va Finlyandiya esa Shimoliy Yevropa deb atalgan.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda Sobiq Ittifoq, Yugoslaviya va Chexoslovakiya parchalanganidan so‘ng, Markaziy Yevropaga Polsha, Chexiya, Slovakiya, ilgari Yugoslaviya tarkibidagi davlatlar, Ruminiya, Vengriya, Avstriya, ba‘zan Boltiqbo‘yi davlatlari, Shveysariya kiritiladi. Sharqiy Yevropaga esa, Rossiya Federatsiyasining bir qismi, Ukraina, Belorussiya va Moldaviya kiradi. G‘arbiy Yevropaga esa, Avstriya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Irlandiya, Fransiya, Germaniya, Niderlandlar, Lyuksemburg, Lixtenshteyn, Monako Shveysariya kiradi.

1.2. G‘arbiy Yevropa davlatlarining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta’minlanish xususiyatlari

G‘arbiy Yevropada ko‘pgina foydali qazilmalarning, ayniqsa rudali qazilmalarning geografik tarqalishi asosiy tektonik oblastlar bilan juda bog‘liqdir.

G‘arbiy Yevropaning kaledon oblastida rudali qazilmalar ancha kam. Skandinaviyada kolchedan, titan, magnetit va mis-nikel rudalarining ayrim konlari asosiy jinslar intruziyasi bilan bog‘liq.

Gersin tektonika oblastida nordon jinslar intruziyalarida uchraydigan rudali konlar: qalay, polimetall, uran va mis rudalari keng tarqalgandir.

Alp oblastidagi intruziyalar bilan xromit, simob konlari, mis kolchedani konlari, polimetall rudalari, boksit, neft, tuz konlari bilan bog‘likdir.

Eng yirik temir ruda konlari Lotaringiya temir ruda xavzasida joylashgan. Bu konlarning vujudga kelishi cho'kindi jinslar bilan bog'liq bo'lib, ular gersin fundamentining mo'ldasimon sineklizasida joylashgan. Rudali qatlam qora qumtoshlari orasida o'rnashgan. Rudali qatlam lateritlari suv yuvib ketishi va ularning dengiz yaqinida cho'kishidan hosil bo'lgan. Ruda tarkibida 30-50 foiz temir bor[16].

Temir rudasining Tyuringiya xavzasi. Normandiya, rudali tog'lar, Uelsdagi past navli cho'kindi konlari ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Xromit asosan Bolqon yarim orolining g'arbida bo'lib, o'ltra asosiy magmatik jinslar orasidadir. Bu jinslar chuqur yoriqlar orqali bo'r va uchlamchi davr qatlamlari orasiga kirib kelgan.

Asosiy mis rudasi konlari O'rta dengiz bo'yidadir. Ko'pincha mis kolchedani asosiy ruda xisoblanadi. Konlar gidrotermal yo'l bilan hosil bo'lgan. Ulardan eng yiriklar Ispaniyadagi Rio-Tinto va Serbiyadagi Bordir. Norvegiyaning kaledon strukturalari intruziyalaridagi pirit konlari: Reros, Sulitelma, Lyokken kamroq ahamiyatga ega.

Energetika foydali qazilmalari orasida G'arbiy Yevropada ko'mir etakchi o'rin tutadi. G'arbiy Yevropadagi asosiy toshko'mir konlari gersin tog' etagi bukilmalaridagi o'rta va yuqori karbon qatlamlaridadir. Buyuk Britaniya ko'mir xavzalari, shimoliy Fransiya va Belgiya havzalari, Quyi Reyn-Vestfaliya havzasi, Saar va Lotaringiya havzalari.

G'arbiy Yevropada neft kam. G'arbiy Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar neftni chetdan keltirishga majbur. Mavjud neft konlari odatda Alp tog'lari etaklaridagi uchlamchi davr yotqiziqlari orasidadir. Karpat tog'larining tashqi yoyi bo'ylab joylashgan flish qatlamlarida va tog' oralig'idagi xavzalarining (Ruminiya) neft konlari eng katta ahamiyat kasb etadi. Albaniya xududidagi Dinara tog'larining g'arbiy zonasida ham anchagina neft zapaslari bor, bu erda neftdan tashqari bitum konlari ham uchraydi.

G'arbiy Yevropada rudamas foydali qazilmalardan anchagina mikdorda tuz, oltingugurt va xilma-xil qurilish materiallari bor[13].

Natriy va kaliy tuzlari eng katta sanoat ahamiyatiga ega. Bu tuzlarning asosiy konlari Germaniya-Polsha Passtekisligining yotqiziqlarida bo'lib, u erlarda er osti tuz gumbazlari bor.

II BOB. G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI XO'JALIK TARMOQLARINING HUDUDIY JOYLASHISHI

2.1. G'arbiy Yevropa davlatlar sanoat tarmoqlari.

Zamonaviy jahon xo'jaligida yirik korporatsiyalar boshqaruv organlariga aylanib borib, o'z sub'ektlari bo'lmish jahon mamlakatlarining xo'jalik ishlarida, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyatida, mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishida va shuningdek davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda asosiy o'rinni egallaydi[8].

G'arbiy Yevropaning iqtisodiy qudratini "sakkizlikka"ka kiruvchi 3 mamlakat ularning ichida esa Germaniya belgilaydi. Boshqa mamlakatlardan Gollandiya, Shveysariya, Belgiya ham katta iqtisodiy mavqega ega, lekin ularning iqtisodiyoti "sakkizlikka"ka kiruvchilardan dunyoda tan olingan ayrim tarmoqlarga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi.

G'arbiy Yevropa sanoatidagi etakchi tarmoqlar Quyidagilar:

1.Mashinasozlik. G'arbiy Yevropa-mashinasozlik vatanidir. Region jami sanoat mahsulotining 1/3qismi va eksportining 2/3qismi mashinasozlikka to'g'ri keladi. Avtomobil sanoati ayniqsa yaxshi rivojlangan. "Reno" (Fransiya), Folksvagen, Mercedes (GFR) avtomobillar dunyoga mashhur. Mashinasozlikni mazkur regionda yuksak darajaga etishi uchun bu erda malakali mehnat resurslari, kuchli ilmiy-texnik baza, infrastruktura mavjud. Mashinasozlik kuchli rivojlangan rayonlar (London, Glazgo, Birmingem, Reyn-Rur) bilan bir qatorda mashinasozlik tarqoq joylashgan hududlar ham mavjud.

2.Mashinasozlikdan so'ng ximiya sanoati turadi. Bu sohada G'arbiy Yevropadagina emas balki butun dunyoda GFR ajralib turadi. Ximiya sanoati dastlab (2-jahon urushiga qadar) ko'mir, kaliy va osh tuzlariga asoslanib bunday qazilmalar joylashgan rayonlarda tashkil topgan bo'lsa, Chet xom-ashyosiga asoslana boshlanishi bilan u endi neft va gaz konlari yaqinlarida va neft-gaz quvurlari (trassa) bo'ylarida tarkib topa boshladi. Neft-gazga asoslangan ximiya sanoati tarmoqlari G'arbiy Yevropaning g'arbiy qismida asosan dengiz va daryo

bo'ylarida (port shaharlarda), sharqiy qismida esa xalqaro neft va gaz quvurlari trassalari o'tgan joylarda to'plangan. Bunday holatlarga asosiy sabab G'arbiy Yevropa davlatlarining chet el neft va gaziga qaramligidir. Masalan: Chexiya, Slovakiya, Polsha, Vengriyaning asosiy neft-kimyoo korxonalari "Do'stlik" quvuri atroflarida, Bolgariya neft-kimyoo sanoati korxonalari esa Qora dengiz bo'ylarida joylashgan.

G'arbiy Yevropa yoqilg'i-energetika majmuasida, ayniqsa qo'ng'ir ko'mir (Germaniyada) etakchi o'rin tutadi. Elektr energiyaning asosiy qismini IESlar beradi. Yelektr energiyasini tejash maqsadida GESlar (akkumulyasiya) qurilmoqda. Dunyodagi 1-GES Italiyada XX-asr boshlarida qurilgan.

G'arbiy Yevropaning metallurgiya sanoati asosan metallurgiya yoqilg'isi va xom-ashyosi bor mamlakatlarda rivojlangan. Qora metallurgiya sanoati Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Lyuksemburgda.

Alyuminiy eritish Fransiya; elektr energiyasiga boy davlatlar Avstriya, Shveysariyada; mis sanoati Germaniya, Fransiya eng rivojlangan.

To'qimachilik sanoati qadimdan Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya (ayniqsa gilam) kabi davlatlarda rivojlangan.

Irlandiya tabiiy resurslari torf, qo'rg'oshin, rux, mis, kumush, tabiiy gazning katta, toshko'mir, temir rudasi va piritning ozroq zaxiralaridan iborat. Shular tufayli konchilik sanoati va ayni vaqtda q.x. xom ashyosini qayta ishlash tarmoqlari etakchi o'rinda. Metallurgiya (asosan, po'lat eritish), mashinasozlik (ayniqsa, kemasozlik, avtomobil yig'ish, priborsozlik), elektrotexnika, neft kimyosi, qurilish ashyolari korxonalari bor. Oziq-ovqat tarmoqlari orasida go'sht, sut, yog', pivo, qand-shakar, spirt-araq korxonalari ayniqsa faol ishlaydi. Torf qazib olish va undan foydalanish sohasida Irlandiya dunyoda oldingi o'rinda turadi. Irlandiya energiyaga bo'lgan ehtiyojining 40% ni ichki imkoniyatlari hisobidan qoplaydi. Energiya balansida chetdan keltiriladigan neftning ulushi kamayib, ko'mir va torfning ulushi oshib bormoqda. Irlandiyada yiliga o'rtacha 14,6 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Mamlakatda xorijiy investitsiyalar faol jalb etilgan. Bu sohada Buyuk Britaniyadan tashqari AQSh, Germaniya, Fransiya,

Yaponiyaning mavqei kuchli. Xorijiy sarmoya yordamida barpo etilgan 800 dan ortiq korxona sanoat mahsuloti eksportining 80% ni beradi.

Shveysariya sanoatida mashinasozlik va metallsozlik etakchi tarmoq hisoblanadi. Mashinasozlik sanoati metall ishlovchi aniq stanoklar, temir-press asbob-uskunalar, elektrotexnika butumlari ishlab chiqaradi. Jahonda ishlab chiqariladigan soatning $\frac{1}{2}$ qismi Shveysariyaga to'g'ri keladi. Kimyo, farmasevtika, to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, poyabzal, qogoz, poligrafiya, oziq-ovqat (pishloq, shokolad va konsentratlar) sanoati rivojlangan. Toshtuz va qurilish materiallari qazib olinadi. Yiliga o'rtacha 60,4 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi ($\frac{1}{2}$ qismi GES-larda, $\frac{2}{5}$ qismi AES larda) [7].

Lixtenshteyn industrial-agrar mamlakat. Mehnatga yaroqli aholining 45,2% sanoatda band. Metallsozlik, priborsozlik, mashinasozlik (press va shtamplash uskunalar, hisoblash va aniq mashinalar, yuksak vakuumli texnika), kimyo-farmasevtika, to'qimachilik, oziq-ovqat, yog'ochsozlik, kulolchilik korxonalari, chinnidan yasama tosh tayyorlash fabrikasi, elektr stansiyalari bor. Yiliga o'rtacha 153 mln. kVt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi. Elektron texnika, mikroprotessorlar ishlab chiqaradi. Sanoat mahsulotining ko'p qismi eksport qilinadi.

Lyuksemburg-yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 24,6%. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari: qora metallurgiya, kimyo, ko'ncilik, sement, fayans, yogochsozlik, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoati. Yiliga 1,4 mlrd. kVt-soat elektr energiya hosil qilinadi. Lyuksemburg aholi jon boshiga cho'yan va po'lat ishlaq chiqarishda dunyoda oldingi o'rishtardan birida turadi. Metallurgiya sanoati uchun kerakli ko'mir va koks Germaniyadan, temir rudaning ko'p qismi Fransiyadan olinadi. Asosiy metallurgiya kombinatlari Lyuksemburg shahri va temir konlari atrofida joylashgan. Domna shlakidan fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi. Asosiy sanoat markazlari: Lyuksemburg (atroflari), Differdanj, Esh, Dyudelanj shaharlari.

2.2. G'arbiy Yevropa mamlakatlar qishloq xo'jaligi

Yevropa qishloq xo'jaligida mahsulotlarni asosiy turlarini etishtirishda o'z ehtiyojlarini qondiribgina qolmay chet ellarga sotish harakterlidir.

Tabiiy va tarixiy sharoitlari ta'sirida regionning qishloq xo'jaligi 3tipga bo'lingan:

- 1.Shimoliy Yevropa tipi uchun intensiv sut chorvachiligi va em-hashak ekinlari etishtirish harakterli. (Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Skandinaviya davlatlari).
- 2.O'rta Yevropa tipi uchun sut va sut-go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik, parrandachilik ustun turadi. Daniya-butun Yevropaning "sut firmasi" hisoblanadi.
- 3.Janubiy Yevropa tipi uchun chorvachilikka nisbatan ziroatchilik ustun turadi. Xalqaro ixtisoslashgan tarmog'i meva-cheva, sitrus ekinlari, uzum (Fransiya, Italiya, Vengriya), zaytun (Italiya), yong'oq (Grek yong'og'i), tamaki, efir moylar etishtirish bilan belgilanadi[17].

O'rta dengiz sohillari-butun "Evropaning bosh bog'i"dir. Baliq tutish-Norvegiya, Daniya va Islandiya uchun qadimdan xalqaro ixtisoslashgan tarmoq hisoblanadi. Bu o'rinda G'arbiy Yevropa mamlakatlarining o'rni alohida ajralib turadi.

Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida fermer bosh figuradir. Fermerlarning 50 foizi erni ijaraga olishadi. Qolganlari esa asosan mayda va o'rta xol fermerlardir. Xar bir fermer o'rtacha 50 gektardan ortiq er maydoniga ega. Lekin jami fermerlarning yarmidan ko'prog'i 2-20 gektar er maydonida ish yuritadi.

Fermer xo'jaliklari mashinalar bilan qurollangan bo'lib, yollanma mexnatdan keng foydalanishadi. Tabiiy yaylovlar va pichanzorlarga boy qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i chorvachilikdir. U qishloq xo'jaligida jami daromadining 70 foizini beradi.

Chorvachilik fermalarida kompleks mexanizatsiyani joriy etish evaziga, mamlakatda chorva tuyog'i 2,7 mln boshdan 2,5 mln boshga qisqardi. Lekin 1 bosh sigirdan bir yilda sog'ib olinadigan sut 4350 kg.dan 5000 kg. oshdi. Tovar-sut mahsuloti etishtiradigan fermerlarda o'rtacha 70 boshdan ziyod qoramol saqlanadi (sog'in sigirlar), qora mol podasi o'rtacha fermerlarda 159 dan 171

gacha ko'paydi, sut mahsuloti – 729 ming metrdan 911 ming litrga ko'paydi, 1 kg sutning tannarxi 18 pensadan 11 pensaga kamaydi.

Buyuk Britaniyada qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun belgilanadigan baxo tizimining bir me'yorda amal qilishini ta'minlash davlat tomonidan kafolatlanadi. Buyuk Britaniyada o'simlikchilik tarmog'i mahsulotlari yalpi mahsulotning 30 foizini tashkil etadi. Shundan 8 foizi meva-sabzavot, 5,4 foizi kartoshka, 9,5 foiz don mahsulotlari, 2,5 foizi qand lavlagi mahsulotlaridir. 2 mamlakatda mehnat unumdorligining yuksak darajada bo'lishi va to'xtovsiz o'sishi ta'minlamoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish ishlarini yirik kompaniyalar zimmasida. Ular mahsulotlarga o'zlari narx belgilaydilar. Fermerlar sotilgan g'allaning atigi 20 foizga ega bo'ladilar. Sut va sut mahsulotlarining chakana narxi fermerlardan olingan shu turdagi mahsulot narxiga nisbatan 2 marta qimmat. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va sotish ishlarini monopolistik kompaniyalar tasarrufida. Bu mahsulotlarni sanoatda qayta ishlash va xo'jaliklarni texnika bilan qayta qurollantirish uchun fermerlarga kredit berish xam shu kompaniyalar nazoratida.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i chorvachilikdir. Mamlakatda 1990 yilda 13,0 mln qoramol mavjud edi. Qishloq xo'jaligida ishlayotgan xar 100 ga erga qariyb 70 bosh qoramol to'g'ri keladi. Chorva mollari dalachilik mahsulotlari xamda sut chiqindilari bo'lgan xo'jaliklarda ko'proq boqiladi. Qo'ylar 25 mln. boshni tashkil etadi. Tumanlar qishloq xo'jaligi bo'yicha ixtisoslashish jixatdan bir – biridan jiddiy farq qiladi. Bug'doy, arpa, qand lavlagi mamlakatning janubida, saabzavotchilik, mevachilik Uosh qo'ltig'i yonida rivojlangandir.

Germaniya Federativ Respublikasi yuksak darajada rivojlangan bu industrial mamlakat qishloq xo'jaligida yirik xo'jaliklar xukmronlik qiladi[5].

Qishloq xo'jaligi mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan extiyojlarini to'la qondira olmaydi, zaruriy mahsulotlarning 25 foiz chetdan keltiriladi. Oxirgi 20 yil mobaynida mamlakat qishloq xo'jaligi keskin o'zgardi. Chunonchi, avvallari 1 ta dehqon 32 nafar uchun mahsulot yaratgan bo'lsa, endilikda 68 nafar uchun mahsulot yaratmoqda. Bu erda fermalar soni kamayib borayotgan bo'lsada (1,6 mln. – xozir 650 ming ta), mahsulot xajmi oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligida

foydalaniladigan er maydoni 13,3 mln gektardan 11,9 mln gektarga qisqargan. Mamlakat qishloq xo‘jaligida vertikal integratsiyasi, ya’ni ixchamlashuv, intensivlashtirish joriy etilmoqda. Xar bir fermerning er maydoni o‘rtacha 18,2 gektarni tashkil etadi. Mamlakat o‘zini don bilan 97 foiz, qand bilan – 125 foiz, yog‘ bilan 93 foiz, sut bilan – 98 foiz, go‘sht bilan – 93 foiz, sabzavot bilan – 34 foiz, meva bilan – 56 foiz, tuxum bilan – 75 foiz ta’minlay oladi. Qishloq xo‘jaligini er maydonlarining 34 foizi dexqonlarga ijaraga berilgan. Xar gektar erga yillik o‘rtacha ijara xaqi 390 – 400 marka. Qishloq xo‘jaligida xajmi bo‘yicha xar xil fermalar uchraydi. 1 – 20 gektar erga ega fermerlar mayda, 20 – 50 gektar erga ega bo‘lgan fermerlar o‘rta va 100 gektardan ortiq erga ega bo‘lgan fermerlar yirik fermer xo‘jaliklar xisoblanadi. Ularning xammasi davlatga erning sifatiga ko‘ra renta to‘laydi. Fermerlarning 10 foizi meva – sabzavot, uzum va xmel etishtiradi. Bavariyada pivo tayyorlash uchun 18 ming gektar erda xmel o‘stiriladi. Fermer xo‘jaliklar kooperativlarga birlashtirilgan.

Fransiya qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan er mamlakat xududining uchdan ikki qismini egallagan. Foydalanilayotgan erlarning 17 mln gektarini xaydalaniladigan erlar, 14 mln gektarini yaylov va pichanzorlar, bog‘ va uzumzorlar 2,2 mln gektarini tashkil etadi va yalpi mahsulotning 43 foizi o‘simlikchilik, 57 foizini chorvachilik mahsulotlaridir.

Fransiya industrial agrar mamlakat bo‘lib, milliy daromadda qishloq xo‘jaligi ma’lum o‘rinni egallaydi. Unda mamlakat axolisining 5 mln. nafari band. Fransiya uzum, qand lavlagi, sut va sut mahsulotlari etishtirish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi.

Fransiyada 2 mingdan ortiq xo‘jalik mavjud. Ularning 1115 tasi 10 gektaridan, 532 mingtasi 10 – 20 gektardan, 375 mingtasi 20 – 30 gektardan, 75 mingtasi 50–100 gektardan, 20 mingtasi 100 gektardan oshiq erga ega xo‘jaliklardir.

Irlandiyada chorvachilik–mamlakat qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i xisoblanadi: bu tarmoq yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining 88% ni beradi, uning 80% eksport qilinadi. Asosan, qoramol (7,2 mln.), qo‘y (9 mln.) boqiladi. Fermer xujaliklarining 70% ga yaqini 25 ga gacha erga ega bo‘lgan o‘rta va kichik fermer

xo‘jaliklaridir. Qishloq xo‘jaligiga yaroqli erlarning salkam 70% yaylovlarga to‘g‘ri keladi. Dehqonchilikning iqtisodiyotdagi ahamiyati unchalik katta emas va u mamlakatning donga bo‘lgan ehtiyojini qoplay olmaydi. Irlandiyada oz miqdorda qand lavlagi, sulii, arpa, bo‘g‘doy, kartoshka etishtiriladi. Baliqchilik rivojlangan.

Shveysariya qishloq xo‘jaligining asosi chorvachilik (asosan, sut chorvachiligi) hisoblanadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotining $\frac{3}{4}$ qismi chorvachilikka to‘g‘ri keladi, qoramol, cho‘chqa, qo‘y boqiladi. Parrandachilik rivojlangan. Dehqonchilikda butdoy, arpa, qand lavlagi, kartoshka, em-xashak ekinlari ekiladi. Tokchilik rivojlangan. Tog‘larda yog‘och tayyorlanadi.

Lixtenshteyn qishloq xo‘jaligida mehnatga layoqatli aholining atigi 2% band. Chorvachilik, ayniqsa, sut-go‘sh t etishtirish (qishloq xo‘jalik mahsulotining 75%) ustun. Sabzavotchilik, bog‘dorchilik, tokchilikdan yuqori hosil olinadi. Lixtenshteyn industrial-agrar mamlakat.

Lyuksemburg qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erlar maydoni 135 ming ga ga yaqin. Kichik-kichik dehqon xo‘jaliklari ko‘p. Mexanizatsiya va rentabellik darajasi juda yuqori. G‘alla (bug‘doy, arpa, sulii, javdar), kartoshka, sabzavot etishtiriladi. Daryo vodiylarida bog‘dorchilik, tokchilik rivojlangan. Qishloq xo‘jaligiga yaroqli erlarning 50% ga yaqini o‘tloqdan iborat. Chorvachilikda jami qishloq xo‘jalik mahsulotining 80% hosil qilinadi. Qoramol va cho‘chqa boqiladi. O‘rmonlarda yog‘och tayyorlanadi.

2.3. G‘arbiy Yevropa davlatlar transporti

Mintaqada transport tizimining alohida turi qaror topgan bo‘lib, unga ko‘p tomonlamalik, ko‘p turlilik muvozanat, transportni deyarli barcha turlarining yuqori rivojlanish darajasi xosdir.

Transporti tarmog‘i zichligi va notekisligi bilan farqlanadi va u ko‘pincha siyosiy hududlarga mos kelmaydi. Tabiiy chegaralar kamroq darajada tarmog‘ining rivojlanishi uchun to‘siq bo‘ladi. Hatto kichik davlatlarda ham bir transport turining ikkinchisidan ustunligi haqida gapirish mushkul. Bunday birikma transportning alohida turlari funksional sohalarining bir-biriga chatishib ketishidan

dalolat beradi, Magistral tarmoqlar qisqargan holda kirish temir yo'llari soni ortib bormoqda.

Bandargohlarda va boshqa transport uzellarida har xil transport turlarining bir-biriga zich yaqinlashuvi intermodel tashishlarning, ayniqsa yuklarning ommaviy konteynerlashtirilishi rivojlanishini rag'batlantirdi.

Dengiz bandargohlari alohida o'rin tutadi. Daryolarning kengligi tufayli bandargohlar Yevropa qifasining ichkarisigacha kirib bordi va xiterlandlar bilan aloqalarda o'zaro kanallar tizimi bilan tutashgan yirik daryo tarmoqlariga tayanadi. Daryo va dengiz transportining qo'shilishi asosan meridian yo'nalishida cho'zilgan yagona daryo transporti tizimini yaratadi (Dunaydan tashqari). Dengiz bandargohlari nafaqat o'z mamlakatlari uchun haqiqiy dengiz darvozalari hisoblanadi, balki xalqaro ahamiyatga ham ega; yuk oqimlari mintaqa ichkarisigacha kirib boradi. Rotterdam bandargohiga keladigan yuklarning yarmidan ko'pi ichki suvlar bo'yicha, asosan Reyn daryosi orqali tashiladi. Shu tarzda Yevropa mintaqasining qirg'oqlariga yaqin hududlari G'arbiy Yevropa transport tarmog'ining tarkibiy qismi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning konfiguratsiyasini belgilab beradi. La-Mansh bo'g'ozi ostida evrotonnelning ishga tushirilishi mintaqaning Shimoli-G'arbiy «burchagida» transport oqimlarining o'zgarishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi hali ma'lum emas.

Mintaqaning temir yo'l tarmog'i Shimoliy Amerikaga qaraganda birmuncha tig'iz; barcha temir yo'l magistrallari, hatto ikkinchi darajali liniyalari - ikki yo'lli, hanuzgacha yuk vagonlari parkida ikki uchli vagonlar ko'p, vagonning o'rtacha yuk sig'imliligi AQShdagi vagonlarga qaraganda 2-3 baravar kam. Yuk tashishlar nisbatan kam vaznli poezdlar tig'iz harakatlanishi orqali amalga oshiriladi edi (konteyner yo'nalishli tarkiblaridan tashqari). Temir yo'l transporti asosan elektrlashtirilgan bo'lib, yuk tashish ishlarining 80 foizdan ortig'i elektr kuchi bilan tortish orqali bajariladi.

Temir yo'l tarmog'ining tig'izligi 100 km²ga 100-300 km.ni tashkil etadi, ya'ni AQShga nisbatan 2-3 baravar yuqori, qoplamasi takomillashtirilgan avtomobil yo'llarining ham ulushi katta. Asosiy daryo tarmoqlarida o'zi yurar kemalar ko'p bo'lib, o'zi yurmaydigan barjalar tarkibini itarish usuli tobora

ommalashib bormoqda. Tortiladigan tarkiblarning uzunligi va yuk ko'tarishi AQShga nisbatdan unchalik yuqori emas.

Avtomobil transporti orqali ichki yuk va yo'lovchi tashish ehtiyojlarining 80 foiz qoplanadi. Umumiy avtomobil yo'llari uzunligi esa 388 ming km.dir.

Temir yo'llar hissasiga ichki yuk va yo'lovchi tashish ehtiyojlarining 10 foizi tog'ri keladi. Uning uzuntigi -16,5 ming km dan ortiq. Shimoliy dengizdan neft va gaz qazib olishning kuchayishi evaziga quvur transportining ham iqtisodiyotdagi o'rni kengayib bormoqda.

Birinchi temir yo'l Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. Ilmiy-texnik taraqqiyot temir yo'l transportiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Fransiya poezd tezligi 1955 yilda soatiga 331 km.ni, 1980 yilda 515 km.ga etgan. Oddiy tezyurar poezdlarning tezligi soatiga 200-300 km.ni tashkil qiladi.

Jahonda uch mingga yaqin port bor. Bir yillik yuk aylanmasi 50 mln.t.dan ortiq gigant-portlarning soni 30 taga yaqin. Maxalliy va xalqaro kabatajda ishtirok etadigan katta portlar 2,2 mingga, shulardan 900 tasi Yevropada, 500 dan ko'prog'i Amerikada, 400ga yaqini Osiyoda, qolganlari boshqa qit'alarda joylashgan.

Ixtisoslashgan portlar ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos. Ularning eng yiriklari neft eksportiga bog'liq xolda paydo bo'ldi va Fors qo'ltig'ida joylashgan. Jahon dengiz transporti geografiyasiga xalqaro dengiz kanallari va dengiz bo'g'ozlari katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning jng yirik kemalari qatnaydigan dengiz kanallari—Kil (GFR) xisoblanadi.

GFRdagi Kil kanali uchinchi xalqaro kanal bo'lib, Boltiq dengizidagi Kil qo'ltig'ini Elba daryosi quyi oqimini, ya'ni Kil va Gamburg portlarini bog'laydi. U XIX asrning oxirida (1895y) qurilgan bo'lib, ko'pchilik Yevropa mamlakatlari uchun katta ahamiyatga ega. Asosiy yuk oqimlari Boltiq dengizidan Shimoliy dengizga va orqaga, shu kanal orqali Gollandiya yarim orolini chetlab o'tadi. Uzunligi 98,7 km., chuqurligi 11,3m, eni 104 m, ikki juft bosh shlyuzlari bor.

FTI sharoitida dunyo transportiga, konteynerlashtirish va u bilan bog'liq bo'lgan "konteyner inqilobi" katta ta'sir ko'rsatdi. Ulardan foydalanish yuk tashishning eski usullariga nisbatan mehnat unumdorligini bir necha marta oshirishga, yuklarni yaxshi saqlashga imkon beradi.

Dengiz konteynerlaridan foydalanish birinchi marta 1956 yilda AQShda qoʻllanilgan. Soʻngi 60-yillarning oʻrtalariga kelib, Shimoliy Atlantika liniyasida konteyner tashuvchi kemalar floti yuzaga keldi. 80-yillarning oxirida esa 5mln. konteynerni tashuvchi bir mingdan koʻproq ana shunday kemalar qatnay boshladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, GFRda eng katta konteyner tashuvchi kemalar floti paydo boʻldi. Jahonning 200 portida konteyner terminallar qurildi. Eng katta terminal Rotterdam portida qurilgan.

Turli transport turlarini konteynerlashtirish va ulardan yuk tashishda aralash foydalanishni kengaytirish – “Transport koʻprigi” deb ataladigan jarayonning shakllanishiga olib keldi. Uni koʻpincha “quruqlik koʻprigi” deb xam atashadi. Ulardan foydalanishda konteyner tashuvchi kemalar, marshrutli tezyurar poezdlar va avtopoezdlar bilan birga qoʻshib olib boriladi. Xozirgi paytda Gʻarbiy Yevropa va Yaponiya oʻrtasidagi xamda Yaponiya-AQShning sharqiy qirgʻoklari oʻrtasidagi ikkita “koʻpri” dunyoda mashxur xisoblanadi.

Birinchisi – Transsibir “Transport koʻprigi” 1970 yildan ishlay boshladi. Uning eng chekka nuqtalari Rotterdam va Chokogala boʻlib, ular oʻrtasidagi masofa – 13770 km.ga teng. Bu yoʻl uch qismdan iborat. Birinchi qismda Gʻarbiy Yevropa yuklari quruqlik transporti orqali chegara boʻyi tugunlari yoki MDQdagi Qora dengiz va Boltiq dengizlari portlariga olib kelinadi. Ikkinchi qismida ular ekspress poezdlar orqali Tinch okeani qirgʻoqlaridagi portlarga (Naxodka, Sharqiy) joʻnatiladi. Uchinchi qismida ular yana dengiz orqali Yaponiyaning Iokagama yoki boshqa portlari, shuningdek Gonkong va Manilaga etkazib beriladi. Yaponidan Gʻarbiy Yevropaga joʻnatiladigan yuklar teskari yoʻnalishda shu yoʻllar orqali tashiladi. Yuk tashishga taxminan 35 sutka vaqt sarflanadi. Ushbu “Transport koʻprigidan” foydalanish dengizda shu yoʻnalishda yuk tashishga nisbatan 20%ga arzon tushadi. XX asrning 90-yillarida ushbu “Transport koʻprigi” orqali xar yili 100-120 ming konteyner tashilgan.

Ikkinchi shunday “koʻpri” Yaponiya va AQShning sharqiy qirgʻoqlari oʻrtasida qurilgan va u Yaponiyadan dengiz orqali AQShning Tinch okeani qirgʻoqlaridagi portlarga, soʻngra undan quruqlik yoʻllari orqali Atlantika qirgʻoqlariga olib chiqiladi.

Ichki suv yo‘llari transporti kemalar qatnaydigan daryolar, kanallar va ichki suv xavzalaridan foydalaniladi va u ushbu ob’ektlarning tabiiy xususiyatlariga ko‘p darajada bog‘liq. Masalan, Yanszi, Kongo daryolari dunyoning eng qudratli temir yo‘l magitrallariga nisbatan xam katta o‘tkazish qobiliyatiga ega. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanish umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liq. Shu sababli jahonda suv transporti yuk aylanmasi bo‘yicha GFR, Niderlandiya, Belgiya ajralib turadi.

Ichki suv yo‘lida yuk aylanmasi buyicha G‘arbiy Yevropada Niderlandiya, Fransiya, Belgiya asosiy o‘rinni egallaydi.

Jahon xalqaro daryolar yoki xalqaro daryo xavzalari soni 2140ta bo‘lib, shular jumlasiga Reyn, Amazonka, Zambezi daryolari xavzalarida 7 mamlakat, Dunay xavzasida esa 12 mamlakat joylashgan.

Yevropada Reyn, Dunay, Oder, Elba eng yirik daryo arteriyalari xisoblanadi.

Xavo transporti – eng tez, sezilarli darajada qimmatga tushadigan transport turi bo‘lib, xalqaro yo‘lovchilarni tashishda muxim rol o‘ynaydi.

Muntazam avialiniyalar tarmog‘i 8 mln.km bo‘lib, u er sharining barcha qismini qamrab olgan, yiliga 1,2 mlrd. yo‘lovchini tashiydi.

Dunyoning eng yirik xavo transporti rivojlangan mamlakati AQSh bo‘lib, uning xissasiga xorijda tashiladigan yo‘lovchilarning yarmi to‘g‘ri keladi. Aviatransport rivojlangan birinchi o‘nlik mamlakatlariga G‘arbiy Yevropada Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Niderlandiya kiradi.

Jahon avialiniyalarining asosiy yo‘nalishlari Yevropa va Shimoliy Amerika va Janubiy, Janubiy Sharqiy Osiyo va Avstraliya o‘rtasida, Yevropa va Afrika, AQSh va Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, AQSh va Janubiy Amerika, AQSh va Avstraliya o‘rtasida amalga oshiriladi. Yevropa va Shimoliy Amerika o‘rtasida xar yili 30-35 mln. yo‘lovchi tashiladi.

Keyingi yillarda birinchi keng flyuzelyajli 300-400 yo‘lovchi va 15-20 t. yuk tashiydigan samoletlar G‘arbiy Yevropada “Aerobus” (Fransiya-GFR-Buyuk Britaniya) ishlab chiqarildi.

Germaniya transport tizimiari juda zich joylashgani bilan ajralib turadi, Temir yo‘llarining umumiy uzunligi 48215 km bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha mamfakat dunyoda beshinchi o‘rinda turadi. Ularning taxminan 2/5 qismi elektrlashtirilgan. Avtomobil yo‘llarining uzunligi 231581 km, ichki suv yo‘laklariniki - 7467 km, neft quvurlariniki esa 3,5 ming kmdan ziyodni tashkil etadi. Asosiy suv-transport magistrali Reyn hisoblanib, uning bo‘ylarida Duysburg, Keln, Karlsruhe kabi bir qator yirik daryo portlari joylashgan. Gamburg - Germaniyaning eng yirik dengiz porti. Bundan tashqari, muhim ahamiyatga ega portlardan Bremen, Emden va Rostoklarni atash mumkin. Mamlakatdagi asosiy neft porti esa Vilgelmsxafendir. Frankfurt, Myunxen, Keln-Bonn va Gamburg Germaniyaning xalqaro aeroportlari hisoblanadi.

Tarixan Buyuk Britaniyaning transport tizimi dengiz transportiga asoslangan. Yuk aylanmasining 90 foizi (shu jumladan, tashqi dunyo bilan) dengiz flotiga to‘g‘ri keladi. London, Liverpul, Sautgempton, Glazgo va Bristol mamlakatdagi eng yirik dengiz portlari qatoriga kiradi.

Irlandiya da temir yo‘llar uzunligi 2,8 ming km, avtomobil yo‘llari uzunligi 92 ming km. Dengiz floti rivojlangan. Asosiy portlari — Dublin, Kork.

Transportning turli xillari mavjud. Temir yo‘llar hammasi elektrlashtirilgan bo‘lib, ularning uzunligi 5 ming km, avtomobil yo‘llari uzunligi 71,1 ming km. Kanat va osma yo‘llar ham bor. Reyn daryosi va ko‘llarda kemalar qatnaydi. Eng yirik porti — Bazel shahrida. Syurix va Jenevada xalqaro aeroportlar bor.

Lyuksemburg hududidan xalqaro temir yo‘l va avtomobil yo‘llari o‘tadi. Temir yo‘l uzunligi — 275 km va avtomobil yo‘llar uzunligi — 5 ming km. Aviatsiya transporti rivojlangan.

Shunday qilib transport – iqtisodiyotning muxim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u xududiy mexnat taqsimoti va moddiy bog‘lanishning muxim omili hisoblanadi[13].

III BOB. G‘ARBIY YEVROPA DAVLATLARI XO‘JALIGINING JAHON XO‘JALIGIDAGI O‘RNI, UMUMIY TAHLILI VA MAVZUNI O‘QITISH METODIKASI

3.1. G‘arbiy Yevropa davlatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni

Jahon xo‘jaligida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ribojlanishi alohida o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda G‘arbiy Yevropa davlatlari hissasiga jahonda ishlab chiqarilayotgan jami yalpi milliy mahsulotning 15-16 % i, dunyo aholisining 3.5-8 % i to‘g‘ri keladi.

G‘arbiy Yevropa davlatlari guruhiga jami 11 davlat kirib, bu davlatlar guruhi o‘z hududlarining katta-kichikligi, aholisini oz-ko‘pligi va turli-tumanligi, boy tabiiy resurslarga egaligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. G‘arbiy Yevropa davlatlari bazasida 1957 yilda “Umumiy bozor” hamkorlik tashkiloti tashkil topdi. 1962 yilda Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi tuzildi. Ushbu davlatlar o‘rtasida sanoat tovarlari bilan erkin savdo aloqalarni olib borish to‘g‘risida qator shartnomalar tuzildi. “Evropa iqtisodiy kengashi to‘g‘risida”gi shartnomaga muvofiq 1992 yilning mayida G‘arbiy Yevropa Erkin Savdo zonasi va mintaqaviy iqtisodiy kompleksi tuzildi. Ushbu mintaqaviy iqtisodiy kompleks G‘arbiy Yevropaning 19 davlatini o‘z tarkibiga birlashtirgan bo‘lib, G‘arbiy Yevropa va dunyo mamlakatlarida tovarlarning erkin harakatini, xizmat ko‘rsatish sohalarni, kapital va aholi migratsiyasini doimo nazorat qilib turadi[8].

G‘arbiy Yevropa Erkin Savdo zonasi hissasiga jahon savdosi aylanmasining 48-50%i to‘g‘ri kelib, bu iqtisodiy zona hozirgi kunda 400 mln. ga yaqin iste’molchiga egadir.

G‘arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotida jahon mamlakatlari bilan olib borilayotgan tashqi savdo aloqalar muhim rol o‘ynaydi. O‘tgan asrning 70-yillardagi Yevropa Ittifoqi (EI) davlatlari dunyoda eng yirik savdo blokdan biriga aylangan edi. YeI davlatlarining tovarlar eksporti darajasi AQShning tovarlar eksporti darajasiga nisbatan uch barobar yuqori bo‘lib, 90-yillarda bu mamlakatlar hisobiga jahon savdosining 41-42% i, valyuta zahiralarining esa 36-37%i to‘g‘ri kelgan[6].

Hozirgi kunda jahon mamlakatlarining xo‘jalik aloqalarida tovarlar eksportini kapital eksporti bilan almashuvi holatlari kengayib bormoqda. Agar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hissasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan kapital eksporti 1961-1964 yillarda 8,7% ni, 1974-1975 yillarda 37,4% ni tashkil etgan bo‘lsa 1980-1995 yillarda esa 60-65% ni tashkil etgan edi. 1970 yilda jahon tovarlar eksportida G‘arbiy Yevropa hamjamiyati davlatlarining hissasi 34,4% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yilda 45,8% ni tashkil etgan[9].

G‘arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya eng yuqori darajada rivojlangan. G‘arbiy Yevropaning iqtisodiy integratsiyasi ob‘ektiv iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda V. Gyugo, I. Kant kabi Yevropaning siyosiy, jamoat arboblari va faylasuflari tomonidan olg‘a surilgan yagona qarashlar konsepsiyasi bilan ham keng sug‘orilgandir.

Jahon iqtisodiyotida Yevropa Ittifoqini (EI) tashkil topishi va rivojlanishining yangi tarixi 1951 yildan boshlandi. Shu yilning aprelida 6 davlat - Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg a‘zo bo‘lib kirgan Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi (EKPB) haqidagi bitim imzolandi. Bu g‘arbiy Yevropa integratsiyasining o‘ziga xos kirish qismi bo‘ldi. Uning tashkil topishi va rivojlanishining boshlanish vaqti yuqorida sanab o‘tilgan davlatlar tomonidan 1957 yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIH) va atom energiyasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyati (Evroatom) haqidagi bitimlarni imzolangan paytidir. Hamjamiyat tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar kirdi. Bu esa keyingi 15 – 20 yillar mobaynida iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining yuqori darajada bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropa integratsiyasining hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanishi nihoyatda qarama-qarshiliklardan iboratdir. Shu bilan birga Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil topishida uning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar hozirgi kunga qadar muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda.

G‘arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishini to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin[6].

Birinchi bosqich (50-yillarning oxiri - 70-yillarning o‘rtalari). Bu davr YeIH davlatlari hayotida “oltin asr” hisoblanadi. Unda bojxona ittifoqi belgilangan

muddatidan oldin tashkil etildi, yagona agrar bozori yaratildi. YeIHga uchta yangi davlat - Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya a'zo bo'lib kirdi. YeIH yoki "Umumiy bozor"ni tashkil qilishning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda asta-sekin barcha to'siqlarni olib tashlash;
- uchinchi davlatlar bilan savdoda bir xil boj tariflarini o'rnatish;
- "insonlar, ishchi kuchi, kapital va xizmatlar" ning erkin harakatlanishiga qo'yilgan to'siqlarni olib tashlash;
- transport va qishloq xo'jaligi sohasida umumiy siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqi tuzish;
- soliq tizimini unifikatsiya qilish;
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

Bularni amalga oshirish maqsadida boshqaruv strukturasi majmui - YeIH Vazirlar Kengashi, Yevropa Hamjamiyati komissiyasi, Yevropa Kengashi, Yevropa Sudi, Yevropa parlamenti tashkil qilindi.

YeIHning birinchi galdagi vazifasi sifatida a'zo davlatlar o'rtasida tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining umumiy bozorini tashkil qilish vazifasini qo'yildi. Buning uchun Bojxona ittifoqi tuzildi. Aynan Bojxona itgifoki YeIHning asosi hisoblanadi. Bojxona ittifoqi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda to'siqlar olib tashlandi;
- uchinchi davlatlarga nisbatan bir xil bojxona tariflari o'rnatildi;
- kapital, kreditlar, pul ko'chirmalarining erkin harakatlanishiga sharoit yaratildi;
- ishchi kuchi migratsiyasi erkinligi va turar joy tanlash erkinligi ta'minlandi.

Bu choralar YeIHga a'zo davlatlari o'rtasida sanoat integratsiyasining tezlashishiga imkon berdi. Ayni bir paytda a'zo davlatlarda kompensatsion yig'imlar va qishloq xo'jaligi fondi orqali moliyalashtirish yordamida, umumiy proteksionizm siyosatini qo'llash yo'li bilan agrar sohaning integratsiyalashuvini

amalga oshirishga harakat qilindi. YeI doirasidagi agrar siyosat YeIga a'zo davlatlarning asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun bir xil minimal narx o'rnatishni kafolatlaydigan yagona narxlar tizimiga asoslanadi. Umumiy bozorning shakllanishi YeIH davlatlarining milliy monopoliyalarini transmilliy korporatsiyalarga aylanish jarayonini tezlashtirdi, hamkor davlatlar iqtisodiyotiga kirishga imkon yaratdi. YeIHni rivojlanishi Hamjamiyatga a'zo-davlatlarning yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuzlangan ochiq tipdagi iqtisodiyotga intensiv ravishda o'tishini anglatadi.

Ikkinchi bosqich (70 va 80-yillarning o'rtalari). Bu davr YeI tarixiga asosan turg'unlik davri sifatda kirdi. Bu davrda YeIga a'zo-davlatlar Yevropa valyuta hamkorligi dasturi, tashqi siyosiy konsultatsiyalar mexanizmini qabul qilishga muvaffaq bo'lsalarda, vujudga kelgan salbiy jihatlar g'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy inkiroziga olib keldi. Bu inqiroz "evroskleroz" nomini oldi. 70 va 80- yillarning boshida YeI davlatlari o'rtasida rivojlanish darajasi bo'yicha farq o'sib bordi. 1981 yilda YeIga Gresianing kirishi bilan bu farq yanada kuchaydi, chunki ushbu davlat iqtisodiyoti hamjamiyatning boshqa ishtirokchi davlatlari iqtisodiyotiga nisbatan juda past darajada rivojlangan edi.

Uchinchi bosqich (80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshi). Bu davr Hamjamiyat tarkibining yanada kengayishi bilan xarakterlanadi. 1986 yilda Ispaniya va Portugaliyaning YeIHga qo'shilishi a'zo-davlatlar o'rtasidagi farqning yanada kengayishiga olib keldi. YeIHga a'zo bo'lgan vaqtida Portugaliyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad YeIH dagi o'rtacha daromadning taxminan 45-50%ga, Ispaniyada esa 3/4 qismiga to'g'ri kelgan edi. Yangi ishtirokchi davlatlarda aholining taxminan 1/5 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan bo'lsa, YeIH da esa o'rtacha 1/13 qismi to'g'ri kelgan. Shu bilan bir qatorda, aynan shu davrda g'arbiy Yevropa integratsiyasi yanada rivojlandi. Bunga birinchi navbatda Yagona Yevropa Akti (YaEA)ning qabul qilinishi ham sabab bo'ldi. Ushbu aktda YeIHga ishtirokchi-davlatlarining umumiy maqsadi - Yevropa Ittifoqining tashkil qilinishi yana bir bor tasdiqlandi. Yevropa Ittifoqi Hamjamiyati ham siyosiy, ham iqtisodiy ittifoq bo'lib, a'zo-davlatlar o'rtasida iqtisodiy, valyuta-moliya, gumanitar sohalardagi hamkorliklar bilan bir qatorda tashqi siyosat xavfsizlikni

ta'minlash sohalarida ham chuqur hamkorlikni amalga oshirish ishlari nazarda tutilgan. YaEAning asosiy maqsadi shundaki, YeIHga a'zo-davlatlar o'rtasida yagona xo'jalikni tashkil qiladigan yagona iqtisodiy hududni yaratilishidir. YaEAning qabul kilinishi bilan Hamjamiyatga a'zo-davlatlar o'rtasida mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, mintakaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsion jarayonlar kuchaydi. 90-yillar boshida YeIga a'zo-davlatlar yagona bozor asoslarini yaratishni amalda tugatishib, valyuta, iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga bevosita yaqinlashdilar.

To'rtinchi bosqich (90-yillarning o'rtasi va XXlasr boshi). Bu Yagona Yevropa Aktiga muvofiq 1993 yilning 1 yanvaridan boshlab Hamjamiyat chegaralari doirasida ishlab chiqarish vositalarining erkin harakati yo'lga qo'yildi. Hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy hudud vujudga keldi. Bu YeI doirasidagi iqtisodiy integratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga kirganini anglatadi.

Maastrixt Bitimiga (1992 yil fevral) muvofiq 1994 yilning 1 yanvardan YeIH Yevropa Ittifoqiga aylandi va uning a'zolari 15 taga etdi. YeI doirasida yagona ichki bozorning tuzilishi amalga oshirildi. Maastrixt bitimida integratsion hamkorlikning keyingi bosqichlarini maqsadlari (Yagona valyuta - YeVROni emissiya qilish huquqiga ega yagona Yevropa bankini tuzish, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa hududini tashkil qilish va boshqalar) e'lon qilingan edi.

YeI integratsiyasida hozirgi kunda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda qiyinchiliklar ham ro'y bermoqda. Yuqorida YeI ga yangi a'zo-davlatlarning kirishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlatlararo iqtisodiy rivojlanishdagi farqlar ko'rib chiqilgan edi. YeIga yangi davlatlarning a'zo bo'lib kirishi ham sezilarli muammolari keltirib chiqarishi mumkin. Eng katta muammolardan biri Yevropa valyuta tizimini shakllantirish davomida namoyon bo'lmoqda. 1992 yildagi 7%ga Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasi devalvatsiyasi oqibatida ro'y bergan YeVT inqirozi Buyuk Britaniya va Italiyani avtomatik tarzda YeVT dan chiqarib tashladi. Valyuta ittifoqini shakllantirishda unga kirish uchun qo'yilgan bir qator talablar ham davlatlarga qiyinchiliklar tug'dirgan edi. O'sha davrda almashuv kursi inflyatsiyasining darajasiga, foiz stavkalari darajasiga, byudjet defitsiti va davlat qarzi bo'yicha qo'yilgan talablarga

faqat Lyuksemburg javob bergan edi. YeIga a'zo-davlatlar orasida Ittifoqni kengaytirish, integratsiyani chuqurlashtirish yo'llari haqida kelishmovchiliklar mavjud edi.

Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi faqat YeI chegaralari bilan cheklanmaydi. 1962 yilda Yevropa erkin savdo assotsiyatsiyasi (EESA) tashkil topdi. YeESA YeI dan farqli ravishda davlatdan yuqori turuvchi funksiyalarga va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. 80-yillarda YeEST a'zo-davlatlar soni 7 ta bo'lib, 90-yillar o'rtasida yana 4ta davlat - Buyuk Britaniya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya a'zo bo'lib kirgan edi. Ushbu a'zo-davlatlar uchinchi davlatlar bilan u yoki bu savdo-iqtisodiy kelishuvlarga erkin qo'shilishlari va bu davlatlarga nisbatan xohlagan bojxona tariflarini o'rnatishlari mumkin edi. YeESAg a'zo-davlatlar o'rtasidagi savdoda erkin, bojsiz savdo rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan qo'llaniladi. Chunki YeESA konvensiyasining faoliyati qishloq xo'jalik mahsulotlariga ta'sir o'tkazmaydi.

1972 yilda YeESA ga a'zo bo'lgan har bir davlat YeIH-YeI bilan o'zaro kelishuvlarni imzoladi. Unga muvofiq sanoat tovarlariga boj va son jihatdan cheklashlar asta-sekin kamaytirildi. Bu davlatlar o'rtasidagi bojsiz savdo murakkab qoidalar tizimiga asoslanadi. Yagona bojxona tarifi yo'qligi sababli YeESA ichida bojsiz savdo erkinligi faqat a'zo-davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

EESA ga kiruvchi davlatlarning va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yuqori darajada rivojlanganligiga qaramasdan, YeESA to'laqonli integratsion guruhga aylanmadi. Amalda u YeIH - YeI uchun "farmklub", ya'ni, yangi a'zolar etkazib beruvchi tashkilot bo'lib qoldi. Hozirgi kunda YeESAning ko'pgina a'zolari uni Sharqiy va G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasidagi istiqbolli erkin savdo zonasi sifatida qaramoqdalar.

Ma'lumki, 2004 yilning mayida Yevropa Ittifoqiga Chexiya, Sloveniya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Litva, Latviya, Estoniya, Kipr, Malta a'zo bo'lib kirdi. Bundan tashqari Bolgariya, Turkiya, Ruminiya, Xorvatiya davlatlari hozirda

YeIga kirish uchun muzoqaralar olib bormoqdalar. Bu YeIning yanada rivojlanishiga guvohlik beradi.

Evropa mamlakatlarida rejalashtirish tizimlariga turlicha yondashadi. Masalan, Buyuk Britaniyada Leyboristlar va konservatorlarning konsepsiyalari o‘zaro to‘qnashayapti. Leyboristlar tashabbuskorlarga pul yordamlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri topshirishni afzal ko‘rishadi. Konservatorlar esa, raqobatning kuchayishiga imkoniyat beradigan kapital qo‘yilmalari yo‘nalishlariga aralashmaslikni afzal ko‘rishadi. Ularning qoidasi faqat yaxshi rivojlanayotgan korxonalarga davlat yordamini berishni ko‘zda tutadi. GFRda iqtisodiyot bilan davlat boshqaruvi keng global ma‘nodagi rahbarlikka asoslangan. Bu erda iqtisodiyotga davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvini chegaralashga bozor mexanizmiga kengroq yo‘l berishga intilish kuzatilmoqda, davlat tomonidan yordam pullarining hajmi kamaytirilmoqda. Maqsad soliqlar vositalaridan foydalanish darajasini oshirish, davlat xarajatlarini iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va fan-texnika salohiyatining rivojlanishiga yo‘naltirish va mamlakat chegaralaridan tashqariga xo‘jalik ekspansiyasi uchun sharoitlar yaratishdir.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari orasida Fransiya eng yaxshi rejalashtirish tizimiga ega. Mamlakatda rejalashtirish shartnoma (kontrakt)lar tizimiga asoslanadi. Bu Shartnomalar davlat bilan 26 xo‘jalik regionlar o‘rtasida (bosh shartnomalar), davlat korxonalari va regionlari tuziladi. Tuzilgan shartnomalarga ular davlat rejasi maqsadlari bilan muvofiq kelgandagina byudjetdan mablag‘ ajratiladi.

Innovatsiya rejasini ishlab chiqishda maxsus institutlardan tashqari alohida shaxs va korporatsiyalar vakillaridan iborat tashabbuskor doira ham ishtirok etadi. Parlament reja to‘g‘risidagi 2 ta qonunni tasdiqlaydi.

- 1) maqsadlarni o‘rnatadi;
- 2) qo‘llangan maqsadlarni hayotga joriy etish usullari.

Rejani hayotga tatbiq etish ustidan parlament, rejalashtirish bo‘yicha milliy komissiya nazorat olib boradi. Reja amalga oshira boshlaganidan ikki yil o‘tgach, zarur bo‘lsa, uni bajarish usullari takomillashtirilishi mumkin.

So'nggi vaqtlarda Yagona Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati mamlakatlarida xo'jalik birlashuvi jarayonlari katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Birlashuv jamiyatga a'zo bo'lgan mamlakatlarda rejalashtirish jarayonini kuchaytiradi va ularning xo'jalik siyosatini bir-biriga moslashtiradi. YeIK mamlakatlari qishloq xo'jaligida G'arbiy Yevropa bozorida qishloq xo'jalik mahsulotlarining haddan tashqari ortiqcha jamg'armalarini cheklash tendensiyasi namoyon bo'lmoqda. Buning uchun qishloq xo'jaligini ekstensivlashtirish loyihalari ishlab chiqildi. Loyihalar mohiyati shundaki, ularga ko'ra, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan er maydonlari hajmi kamaytiriladi. Yevropa iqtisodiy konsepsiyasi (EIK)da, umuman, hamjamiyat mamlakatlarida taxminan 1 million ga erda, shu jumladan Germaniyada 340 ming; Fransiyada 300 ming, Buyuk Biritaniyada 100 ming ga erda xo'jalik yuritishni to'xtatish tavsiya qilinmoqda. Ba'zi mamlakatlarda dehqonlarning ishlatiladigan maydonlarni qisqartirishni rag'batlantiriladi.

3.2. G'arbiy Yevropa davlatlari xo'jaligining umumiy tahlili

G'arbiy Yevropa maydoni 1421125 km², aholisi 252 mln. Bu erda tarixiy taqdiri umumiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlari bir xil bo'lgan 11ta suveren davlat joylashgan.

G'arbiy Yevropa-jahon sivilizatsiya markazlaridan biri, buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat inqiloblari, shahar aglomeratsiyalari, madaniy va siyosiy revolyusiyalar, xalqaro iqtisodiy integratsiya ro'y bergan xudud.

Maydoni shimoldan janubga 5000 km ga, g'arbdan sharqqa 3000 km ga cho'zilgan. Horijiy Yevropa mamlakatlarining maydoni asosan o'rta va mayda bo'lib, eng kattasi Fransiya (maydoni 551000km²), kichigi Vatikan (1950 km²).

Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi:

- mamlakatlarning bir-biriga nisbatan yaqin qo'shni ekanligi;
- hududining kichikligi va chegaralarining yaqinligi;
- transportning yaxshi yo'lga qo'yilganligi;
- aksariyat mamlakatlarning dengiz bo'yida joylashganligi;
- hamma rivojlangan davlatlarning bir joyga to'planganligi, ayniqsa sakkizlikka kiruvchi davlatlarning 3 tasini shu joyda joylashganligi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining umumiy ko'rsatkichlari

№	Mamlakat nomi (Rasmi nomi)	Poytaxti	Davlat tili	Pul birligi	Maydoni, km ²	Aholisi	YaMM.mlr d dollar
					Jahondagi urni	Zichligi km ²	YaMM aholi jon boshiga
1	Avstriya (Avstriya Respublikasi)	Vena	Nemis	Evro	83 871	8 206 524	399,5
					113	91	36 000
2	Belgiya (Belgiya Qirolligi)	Bryussel	Nemis, Niderland, fransuz tillari.	Evro	32 545	10 511 000	483,7
					136	318	29,814
3	Buyuk Britaniya (Shimoliy Irlandiya va Buyuk Britaniya qushma qirolligi)	London	Ingliz	Funt sterling	244 820	60 776 238	2435.1
					76	247	30 900
4	Germaniya (Germaniya Federativ Respublikasi)	Berlin	Nemis	Evro	357 022	82 310 000	3399.5
					61	231	31 472
5	Irlandiya (Irlandiya Respublikasi)	Dublin	Irland, ingliz	Evro	70 273	4 240 000	210,3
					117	60,3	43 600
6	Lixtenshteyn (Lixtenshteyn Knyazligi)	Vadus	Nemis	Shveysars kiy frank	160,4	34 905	4,8
					189	217	25 000
7	Lyuksemburg (Buyuk Lyuksemburg Gersogligi)	Lyuksembur g	Lyuksembur g, Nemis, fransuz tillari	Evro	2586,4	473 000	57,1
					176	183	71 400
8	Monako (Monako Knyazligi)	Monako	Fransuz	Evro	1,95	35 656	6.1
					193	18 285	27 000
9	Niderlandlar (Niderlandlar Qirolligi)	Amsterdam	Niderland	Evro	41 526	16 440 133	772,2
					131	396	26 096
10	Fransiya (Fransiya Respublikasi)	Parij	Fransuz	Evro	547 030	61 875 822	2612.8
					47	114	28 647
11	Shveysariya (Shveysarskaya Konfederatsiya)	Bern	Nemis, italyan, retoroman, fransuz tillari	Shveysari ya franki	41 290	7 489 370	632,1
					132	181,4	30 723

Dunyodagi barcha mamlakatlarning jahon xo'jalik aloqalarida tutgan o'rni, eng avvalo, ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YIM) yoki yalpi milliy mahsulot (YMM) hajmini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM yoki YMMni, o'rtacha ish haqi miqdorini, tashqi savdo operatsiyalari hajmini, kapital

harakatidagi ko'rsatkichlarni, mamlakatlarning tashqi qarzlarini va h.k.larni kiritish mumkin.

Bundan tashqari makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashda inflyatsiya va ishsizlikning o'sish sur'ati, foiz stavkasi, soliq stavkalari, milliy valyuta kursining etakchi mamlakatlar valyutalariga nisbatan o'zgarish dinamikasi va boshqa nisbiy ko'rsatkichlardan ham keng foydalaniladi[8].

G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining ko'rsatkichlari

№	Mamlakat nomi (Rasmi nomi)	Afzalliklari:	Sust rivojlangan tomonlari:	Mamlakatlarni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi		
				Xizmat ko'rsatish	Sanoat	Qishloq xo'jaligi
1	Avstriya (Avstriya Respublikasi)	Keng ishlab chiqarish bazasi: Kuchli sanoat (kimyo va neftkimyosi, elektrotexnika, to'qimachilik sanoati, yog'ochsozlik): Yuqori malakali ishchilar; turizm — chetdan keladigan muxim mablag'lar manbaiy.	Import mahsulotlariga muhtojligi, birinchi o'rinda neft va gazga;	65,8%.	32,5%,	1,7%.
2	Belgiya (Belgiya Qirolligi)	Eng asosiy metal va tuqimachilik mahsulotlari etishtiruvchi. Flandriya-yuqori texnologiyalar asosida industrialashgan mintaqa, Antverpen — jahon olmos savdosi markaziy. Yuqori darajada rivojlangan kimyo sanoati. Yuqori malakaga ega bo'lgan ko'p tilli ishchilar. Shimoliy dengizdagi yaxshi tarmoqlangan transport tizimi.	Tashqi qarzning YaMM nisbatan 87,7 % Ba'zi xududlarda malakasiz ishsizlarning mavjudligi Davlat pensiyasining yuqoriligi uchun muddatidan oldin ishchilarning pensiyaga chiqishi.	73,0 %	25,7 %	1,3 %
3	Buyuk Britaniya (Shimoliy Irlandiya va Buyuk Britaniya qushma qirolligi)	Eng asosiy metal va tuqimachilik mahsulotlari etishtiruvchi. Kuchli sanoat (kimyo va neftkimyosi, elektrotexnika, to'qimachilik sanoati, yog'ochsozlik):	Ba'zi xududlarda malakasiz ishsizlarning mavjudligi	74 %	18,6 %	7.4 %

4	Germaniya (Germaniya Federativ Respublikasi)	Yuqori darajada rivojlangan kimyo sanoati. Yuqori malakaga ega bo'lgan ko'p tilli ishchilar.	Davlat daromadlarining 1/3 qismi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirilgan.	70 %	28 %	2 %
5	Irlandiya (Irlandiya Respublikasi)	YaIM yillik usishi 9 % Yevropada yuqori darajada. srednegodovoy prirost «Kelt yo'lbarsi». Savdo xajmining yuqoriligi. Qishloq xo'jaligining yuqori ko'rsatkichi va Oziq – ovqat sanoati Yuqori texnologiyalar tarmog'ining kengayishi. Eksportning 25 % elektronika mahsulotlari. YeI infrastruktur loyixalarini moliyalashtiradi. Yuqori malakali ishchi ko'chi.	Ko'pchilik asosiy tarmoqlarning g'arbning TMK tomonidan nazorat qilinishi. Turar joylarning etishmasligi. Tashqi qarzni yuqoriligi(94,0 % YaIM).	42%	46 %	12%
6	Lixtenshteyn (Lixtenshteyn Knyazligi)	Lixtenshteyn — Turmush darajasi yuqori bo'lgan va rivojlangan moliyaviy xizmat ko'rsatish sektoriga ega bo'lgan industrial mamlakat.		55%	43 %	2 %
7	Lyuksemburg (Buyuk Lyuksemburg Gersogligi)	Turmush darajasi yuqori bo'lgan Yevropadagi eng boy mamlakatlardan biri. Lyuksemburg shahrida YeIning birqancha tashkilotlari joylashgan Imkoniyatlarining yuqoriligi tufayli 1000 ortiq investitsion fondlar, 200dan ortiq banklarning mavjudligi. Jahonda aholi daromadlarining yuqoriligi.	Tashqi qarzni yuqoriligi. Iqtisodiyoti inqirozga bardoshligi past	40%	56 %	4 %
8	Monako (Monako Knyazligi)	Banklarning mahfiylikining ishonchliligi va soliqlarning past chetdan pul oqimining ortishiga zamin yaratadi. Tashqi qarzni yo'qligi. Ishsizlikning pastligi (3 %).	Bank va soliq siyosatida YeI talablarining oshib borishi. Resurslarning yo'qligi import mahsulotlariga qaramligi	90	10	-

9	Niderlandlar (Niderlandlar Qirolligi)	Yuqori malakaga ega bo'lgan ko'p tilli ishchilar. Infrastrukturaning yaxshiligi. Philips va Shell konsernlarining jahonning ko'plab mamlakatlarida faoliyat ko'rsatishi. Inflyatsiyaning pastligi Ishsizlik darajasining pastligi	Ijtimoiy tizimda soliqning yuqoriligi va ijtimoiy kafolatlarlar tularining qimmatligi. Davlat daromadlarining 1/3 qismi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirilgan. Aholining qarishi. Maoshlarning yuqoriligi.	73,5 %	24,4 %	2,1 %
10	Fransiya (Fransiya Respublikasi)	Fransiya — yadro va kosmik sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakat. YeI davlatlari ichida iqtisodiy rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Uning iqtisodiy imkoniyatlari jahonda etakchi urinlardan birida bo'lishini taminlaydi. Tabiiy afzalliklaridan yaxshi foydalana oladi.	Iqtisodiyotining ananaviy zaif tomonlari ishsizlikning yuqoriligi, ayniqsa yoshlar orasida va dengiz orti departamentlarida. Tashqi qarzning yuqoriligi 90% YaIM	76%	20%	4%
11	Shveysariya (Shveysarskaya Konfederatsiya)	Yuqori malakaga ega bo'lgan ishchilar, xizmat ko'rsatishning yuqoriligi Mashinasozlik va aniq mexanika sohalarining rivojlanganligi. Yirik transmilliy korporatsiyalarning jumladan kimyo sanoati, farmakologiya va bank tizimining rivojlanganligi Bank tizimining maxfiligi chetdan kapital kirib kelishini ta'minlaydi.	Resurslarining kamligi va xududining kichikligi.	69.1%	26..3%	4.6%

Insoniyat jamiyati tarixida xizmatlarning paydo bo'lishi, jamiyatning sinflarga bo'linishi bilan bevosita bog'liq. Feodalizm yoki qullik jamiyatida ham xo'jayin va tobe insonlar bajaruvchi vazifasini o'tashgan. o'sha vaqtlardayoq, hunarmandchilik o'sishi bilan bir qatorda, erkin o'zida muhim xizmatlarni mujassamlashtirgan insonlar: rassomlar, qo'shiqchilar paydo bo'la boshlagan. Lekin hozirgi kunda ham iqtisodiy faol aholining ko'pgina qismini uncha qimmat bo'lmagan ishchi kuchi sinfi tashkil qiladi.

Kapitalizmning rivojlaishi va bozor iqtisodiyotining paydo bo'lishi xizmatlarni foyda manbaiga aylantirdi. Lekin hozirda mavjud xizmatlarning hammasi ham YaIMni tashkil etmaydi. Kapital xo'jalikda mehnat faqatgina boshqa foyda manbayiga qo'shimcha kiritsagina mahsuldor hisoblanadi. Buning natijasida tayyor mahsulot qiymatida erkin xizmat ko'satuvchi insonlar hissasi nazarda tutilmaydi.

Sektor xizmatlari chegaralari uncha aniq emas. Har hil davlatlarda bu tarmoq turlicha talqin etiladi, Moddiy ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, xizmatlar tarmog'i xalqaro klassifikatsiyaga ega emas. Faqatgina xalqaro valyuta fondi va Dunyo banki 90-yillar boshlarida xalqaro xizmatlar klassifikatsiyasini kiritdi.

Xizmatlar tarmog'ini birinchi bor davlat siyosati darajasiga ko'tarib uni to'rt bosqichda klasifikatsiya qilgan davlat AQSh hisoblanadi. Bu klasifikatsiya birinchi bor 1987-yilda rasmiylashtirildi. Lekin boshqa tarmoqlardagi ziddiyatlar hali ham ochilmay qolyapti. AQShda hozirgacha qurilish sohasi sanoatga tegishli. G'arb davlatlaridan Italiya, Fransiya kabi davlatlarda esa qurilish sohasi ko'p yillardan beri xizmatlar sohasiga kiritilgan. Ko'pgina davlatlarda hozirda yo'lovchilarni tashish xizmat ko'rsatish tarmog'iga kirsa, yuk tashish tarmog'i esa bundan mustasno, ya'ni u hozirgacha tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi soha tasarrufida qolyapti. AQShda transport sohasi butunlay xizmat ko'rsatish tarmog'i tasarrufiga kiradi. Rivojlanayotgan davlatlarda xizmat ko'rsatish tarmog'iga tegishli bo'lgan ko'pgina tarmoqlar erkin yoki davlat tasarrufidagi tarmoq sifatida e'tirif etilmoqda. Bunga asosiy sabab yangi tarmoqlarning vujudga kelishidir. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida deyarli barchasida YaIM da xizmat ko'rsatish

sohalarining nisbati yuqori darajada. Bu sohada Buyuk Britaniya, Germaniya, Monako davlatlari etakchilik qiladi.(3-jadval).

Iqtisodchi olimlar va jamoat arboblari orasida mamlakatlar yoki hududlar taraqqiyotining o'ziga xos masalalari global muammolarga aylanishi hususida turli fikr va qarashlar konsepsiyasi mavjud. Shuni qayd etib o'tish joizki, bu jarayonga asosiy sabab jahon xo'jaligining XX asr industrial bozor iqtisodiyoti bosqichiga xos bo'lgan ekstensiv rivojlanishi bo'ldi. Lekin oxirgi o'n yilliklarda Yevropa, Amerika va Osiyoning rivojlangan mamlakatlari o'z xo'jaligining intensiv rivojlanishiga qanchalik harakat qilayotgan bo'lsa, ko'plab rivojlanayotgan, shuningdek bir qator o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun intensifikatsiyalash jarayonlari eng muhim muammoligicha qolmoqda.

Jahon iqtisodiyotida insoniyat uchun eng dolzarb masalalarni ko'rib chiqishni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va manaviy ahamiyat kasb etuvchi muammolarni hal etishdan boshlash lozim. So'ng tabiiy-iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan ekologik va oziq-ovqat muammolari, aholi sonining o'sishi bilan bog'liq demografik muammolar tahlil etilishi lozim. Ammo ko'rsatib o'tilgan masalalar bilan jahon davlatlari va dunyo aholisini xavotirga soluvchi muammolarning xilma-xilligini cheklab bo'lmaydi. Bundan tashqari global muammolarni tahlil qilganda uning iqtisodiy jihatlariga ham diqqatni qaratish lozim. G'arbiy Yevropa mamlakatlarning rivojlanishida sust rivojlangan tomonlari ham yo'q emas. Bularning eng asosilari qo'yidagicha: import mahsulotlariga muhtojligi, Tashqi qarzning YaMM nisbatan yuqoriligi, Davlat daromadlarining katta qismi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirilgan va boshqalar (3-jadval) [13].

4-jadval

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining asosiy iqtisodiyot tarmoqlari eksport- import salohiyati va yirik kompaniyalari

№	Mamlakat nomi (Rasmi nomi)	Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari	Eksport mahsulotlari	Import mahsulotlari	Yirik kompaniyalar
1	Avstriya (Avstriya Respublikasi)	Turizm. Aerokosmik texnologiyalar. Sanoatning asosiy tarmoqlari mashinasozlik (transport va qishloq xo'jalik), stanoksozlik va boshqa sanoat tarmoqlariga asbob uskunalar Avstriya engil sanoat asosini Tuqimachilik charm-poyafzal va tikuvchilik tashkil etadi. Qishloq xo'jaligini asosini sut chorvachiligi tashkil etadi. Shuningdek tokchilik, donli ekinlar, chuchqachilik.	Asbob uskunalar, stanoklar, qora metal, shuningdek istemol tovarlari kanstovarlar i oziq-ovqat.	Asosan istemol tovarlari va tayyor mahsulotlar.	Atomic. Austrian Gaming Industries GmbH. Air Alps
2	Belgiya (Belgiya Qirolligi)	Sanoatning asosiy tarmoqlari oziq-ovqat, kimyo, metallurgiya, metalni qayta ishlash, mashinasozlik, tuqimachilik, oyna ishlab chiqarish. Qishloq xo'jaligi mol go'shti, bo'zoq gushti, chuchqa go'shti, sut mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashtirilgan. Qishloq xo'jaligi asosini qand lavlagi, sabzavotlar, mevalar, don va tamaki tashkil etadi.	Temir va pulat, transport uskunolari, traktorlar, olmos.	Yoqilg'i, don ximikatlar, istemol tovarlari.	Unilever Belgium, Kraft Foods Belgium, Materne, Ferrero Opel Antwerp, Ford Genk, Audi Forest/Brussels, Van Hool (avtobuslar) va Truco Kokeriy-Sambr («Cocerill-Sambre»,

3	Buyuk Britaniya (Shimoliy Irlandiya va Buyuk Britaniya qushma qirolligi)	Mashinasozlik, elektr asbob uskunalar, elektronika telekommunikatsiya metallurgiya, kimyo, neft va istemol tovarlari.	Mashinasozlik va transport, sanoat mahsulotlari va kimyoviy vositalar. Buyuk Britaniya dunyo eksportida bank, sug'urtalash, brokerlik, konsultativ, shuningdek kompyuter progrmmalari xizmatlarining 10% tashkil etadi.	Sanoat mahsulotlari, mashinasozlik, istemol tovarlari.	British Petroleum «Shell» «Djeneral elektrik», «Ingliz elektrik» va «Assoshiyeted elektrikal indastriz». «British eyrveys» «Rolls-roys»
